

## XII. DEMOGRAFIK HOLAT VA O'RTACHA ISH HAQI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun holatiga viloyat doimiy aholisining soni 3 931,1 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 78,5 ming kishiga yoki 2,0 %ga ko'paydi. Shundan, 2 207,8 ming kishi - shahar joylarida (jami aholi sonining 56,2 %i) va 1 723,3 ming kishi - qishloq joylarida (43,8 %i) istiqomat qiladi.

### **Viloyat hududi va aholi zichligi (2022- yil 1- iyul holatiga)**

	<i>tashkil topgan sana</i>	<i>hududi, ming kv. km</i>	<i>doimiy aholi soni, ming kishi</i>	<i>1 kv. km ga aholi zichligi, kishi</i>
<b>Viloyat bo'yicha</b>	<b>15.01.1938</b>	<b>6,759</b>	<b>3 931,1</b>	<b>581,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	1877 yil	0,100	302,3	3013,6
Qo'qon	X asr	0,037	261,9	7078,8
Quvasoy	14.06.1954 yil	0,264	97,8	370,3
Marg'ilon	X asr	0,041	244,4	5961,4
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	29.09.1926 yil	0,631	221,1	350,3
Qo'shtepa	16.04.1952 yil	0,368	200,7	545,3
Bog'dod	31.12.1964 yil	0,333	225,4	676,8
Buvayda	26.12.1973 yil	0,279	238,4	854,5
Beshariq	29.09.1926 yil	0,774	235,8	304,7
Quva	10.02.1939 yil	0,438	268,0	611,9
Uchko'prik	29.09.1926 yil	0,275	239,8	872,1
Rishton	09.01.1967 yil	0,307	210,0	684,0
So'x	27.02.1990 yil	0,221	81,0	366,7
Toshloq	12.04.1973 yil	0,243	211,8	871,5
O'zbekiston	17.04.1963 yil	0,689	248,2	360,2
Farg'ona	22.02.1964 yil	0,612	223,3	365,1
Dang'ara	07.12.1970 yil	0,435	182,6	419,8
Furqat	09.04.1992 yil	0,305	122,8	402,7
Yozyovon	27.12.1980 yil	0,407	115,7	284,4

Farg‘ona viloyatining ma’muriy-hududiy tashkil topishi 1938- yilning 15-yanvaridan boshlanadi. Hududi 6,8 ming kvadrat kilometri tashkil etadi yoki mamlakatimiz hududining 1,5 foiziga teng. Viloyatimiz shimaldan Namangan viloyati, sharqdan Andijon viloyati, janub tomondan Qirg‘iziston Respublikasining O’sh hamda Batken viloyatlari va g‘arbdan Tojikiston Respublikasining Xo‘jand viloyati bilan chegaradosh. Viloyaning So‘x tumani hamda Farg‘ona tumanining Shohimardon va Yordon, Rishton tumanining Cho‘ng‘ara qishloqlari viloyat, Respublika hududidan tashqarida, Qirg‘iziston Respublikasi hududida joylashgan.

Viloyat ma’muriy hududiy bo‘linishiga ko‘ra 4 ta viloyat miqyosidagi shahar, 15 ta tuman, 5 ta tumanlar tasarrufidagi shaharlar, 197 ta shahar tipidagi posyolkalar, 1 227 ta aholi yashash punktlari hamda 1 055 ta mahalla fuqarolar yig‘inlaridan tashkil topib, ularda 3 931,1 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Viloyatning ma’muriy markazi Farg‘ona shahri.

Viloyatning iqlimi keskin kontinental, quruq. Tog‘ tizmalari Farg‘ona vodiysiga sovuq havoning kirib kelishini to‘sib turganligi bois, qishda ob-havo bir muncha mo‘‘tadil. Yozi issiq, iyulning o‘rtacha harorati  $27,5^{\circ}\text{S}$ , qishi nisbatan sovuq, yanvarning o‘rtacha harorati  $-3^{\circ}\text{S}$ . Vegetatsiya davri 217 kun, yillik o‘rtacha yog‘in miqdori 200-250 mm.ni tashkil etadi.

Tuproqlari bo‘z, qo‘ng‘ir, o‘tloqi, botqoq tuproqlar, qumtosh, mergel chaqirtoshlardan iborat bo‘lib, ekin ekilmaydigan tekisliklar qismida turli o‘simliklar, tog‘ yon bag‘irlarida pista, bodom o‘sadi. Yovvoyi hayvonlar (bo‘ri, tulki, qobon va boshqalar) kam uchraydi, sudraluvchilar, kemiruvchilar, qushlar, suv havzalarida baliqchiliklar bor.


Geografik joylashuvi, tabiiy, mineral xom-ashyo resurslarining mavjudligi viloyatda azotli va fosforli o‘g‘itlar, neft mahsulotlari, ohaktosh, sog‘ tuproqlar (g‘isht, cherepitsa uchun xom-ashyo), marmar, cement xom-ashyosi, shag‘al, yengil sanoat, xususan to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirish uchun yanada qulaydir. Viloyatda foydali qazilmalarning 43 turi aniqlangan bo‘lib, ulardan 21 tasi o‘zlashtirilmoqda.

**Farg'ona viloyati hududlari bo'yicha doimiy aholi soni to'g'risida ma'lumot**  
*(2022- yilning 1- iyul holatiga )*

	Doimiy aholi soni, ming kishi			Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati, %da		
	jami	shu jumladan:		jami	shu jumladan:	
		shahar	qishloq		shahar	qishloq
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>3 931,1</b>	<b>2 207,8</b>	<b>1 723,3</b>	<b>102,0</b>	<b>56,2</b>	<b>43,8</b>
<i>shaharlar:</i>						
Farg'ona	302,3	302,3	-	102,1	100,0	-
Qo'qon	261,9	261,9	-	101,5	100,0	-
Quvasoy	97,8	55,0	42,8	101,9	56,2	43,8
Marg'ilon	244,4	244,4	-	101,6	100,0	-
<i>tumanlar:</i>						
Oltiariq	221,1	166,4	54,7	102,2	75,3	24,7
Qo'shtepa	200,7	77,2	123,5	102,7	38,5	61,5
Bog'dod	225,4	115,3	110,0	102,1	51,2	48,8
Buvayda	238,4	111,2	127,3	102,2	46,6	53,4
Beshariq	235,8	82,9	152,9	101,6	35,2	64,8
Quva	268,0	124,1	143,9	101,8	46,3	53,7
Uchko'prik	239,8	43,9	195,9	102,4	18,3	81,7
Rishton	210,0	134,1	75,9	101,9	63,8	36,2
So'x	81,0	51,3	29,7	101,5	63,3	36,7
Toshloq	211,8	49,2	162,6	102,3	23,2	76,8
O'zbekiston	248,2	107,4	140,7	101,8	43,3	56,7
Farg'ona	223,3	140,2	83,1	102,3	62,8	37,2
Dang'ara	182,6	42,5	140,1	102,4	23,3	76,7
Furqat	122,8	29,0	93,9	102,1	23,6	76,4
Yozyovon	115,7	69,5	46,3	102,3	60,0	40,0

Shaharlar ichida eng ko'p aholi Farg'ona shahrida 302,3 ming kishi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 %ga o'sgan) va tumanlarda eng ko'p aholi Quva tumanida bo'lib 268,0 ming kishini tashkil qiladi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 %ga o'sgan).

**Hududlar kesimida doimiy aholi soninig taqsimlanishi**  
*(2022- yil 1- iyul holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)*




### Yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati koeffitsiyentlari

Ko'rsatkichlar	ming kishi		1000 aholiga nisbatan	
	2021- yil	2022- yil	2021- yil	2022- yil
Tug'ilganlar	43,5	45,0	22,9	23,2
O'lganlar	8,7	8,9	4,6	4,6
shu jumladan bir yoshgacha bolalar	0,3	0,3	6,1	7,1
Nikohlar, mingta	12,2	10,8	6,4	5,6
Ajralishlar, mingta	2,1	2,5	1,1	1,3

**Tug'ilish darajasi.** 2022- yilning yanvar-iyun oylari tug'ilganlar soni 45,0 ming kishini tashkil etdi va 2021- yilning shu davriga (43,5 ming kishi) nisbatan 1,5 ming kishiga ko'paydi, shunga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti 23,2 promilleni tashkil qildi.

Tug'ilish darajasining ko'payishi viloyatning Farg'ona tumanida 22,2 dan 26,1 promille, Farg'ona shahrida 18,7 dan 22,3 promille, Qo'qon shahrida 21,8 dan 24,5 promillega, Quvasoy shahrida 21,5 dan 22,6 promillega, Marg'ilon shahrida 24,0 dan 25,5 promillega kuzatildi.

**Aholining tabiiy harakati koeffitsiyenti**  
(2022- yilning yanvar-iyun holatiga (1 000 aholiga nisbatan, promille))




**O'lim darajasi.** 2022-yilning yanvar-iyun oylarida o'lganlar soni 8 885 kishini tashkil qildi va 2021- yilning shu davriga (8 659 kishi) nisbatan 226 kishiga ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil qildi (2021- yil yanvar-iyun oylarida 4,6 promille).

O'lganlar sonining ko'payishi viloyatimizning ba'zi shahar va tumanida yuz bergan bo'lib, eng ko'p o'lim Toshloq tumanida 121 kishidan 5,1 promille, So'x tumanida 100 kishinidan 6,1 promillega kuzatildi, Beshariq tumanida 82 kishinidan 4,6 promille, Farg'ona tumanida 60 kishinidan 4,9 promille, Qo'shtepa tumanida 55 kishinidan 4,6 promille.

O'lganlar umumiyligi sonining 60,3 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 6,4 %i o'sma kasalliklaridan, 4,6 %i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 5,9 %i baxtsiz xodisadan, 8,2 %i nafas olish organlari kasalliklaridan vafot etgan.

## O‘lganlar umumiy sonining tarkibiy tuzilishi

(2022- yilning 1-iyul holatiga, %da)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida bir yoshga to'lmagan 352 ta bolalar o'limi kuzatildi. Go'daklar o'limi koeffitsiyenti 7,1 promilleni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyun 6,1 promille).

Bir yoshgacha o'lgan bolalar umumiy sonining 37,2 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 11,6 %i tug'ma anomaliyalardan, 35,5 %i nafas olish organlari kasalliklaridan, 3,1 %i infeksiya va parazit kasalliklaridan va 4,0 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va shikastlanish oqibatida, 0,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 8,0%i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**Nikohlar va ajralishlar.** 2022- yilning yanvar-iyun oylari shahar, tuman hokimliklarining FHDYo bo'limlarida 10 792 ta nikohlar va 2 527 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 5,6 ta nikoh (2021 yilning tegishli davrida 6,4 ta) va 1,3 ta ajralishlar (2021- yilning tegishli davrida - 1,1 ) to'g'ri keladi.

### Yanvar-iyun oylarida tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni

(birlikda)

	Tuzilgan nikohlar		Nikohdan ajralishlar	
	2021-yil	2022-yil	2021-yil	2022-yil
<b>Viloyat</b>	12 185	10 792	2 111	2 527
<i>shaharlar:</i>				
Farg'ona	928	782	311	356
Qo'qon	878	767	231	276
Quvasoy	281	212	62	72
Marg'ilon	727	647	124	168
<i>tumanlar:</i>				
Oltiariq	695	617	109	118
Qo'shtepa	576	498	101	112
Bog'dod	782	580	105	154
Buvayda	685	644	96	111
Beshariq	719	636	101	101
Quva	765	778	97	121
Uchko'prik	786	621	124	105
Rishton	662	671	83	152
So'x	289	352	62	42
Toshloq	556	483	81	99
O'zbekiston	769	702	131	137
Farg'ona	854	684	103	173
Dang'ara	551	523	94	119
Furqat	378	357	50	51
Yozyovon	304	238	46	60

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatga ko'chib kelganlar soni 4 568 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 6 031 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 1463 kishiga (2021 yilning shu davrida - minus 2 258 kishi) teng bo'ldi. Eng katta minus qoldiqlar Marg'ilon shahri (minus 595) va Qo'qon shahrida (minus 418) kuzatildi.

**Yanvar-iyun oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari  
(kishi)**

	<i>Kelganlar</i>		<i>Ketganlar</i>		<i>Migratsiya saldosи</i>	
	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>

<b>Viloyat</b>	<b>5 558</b>	<b>4 568</b>	<b>7 816</b>	<b>6 031</b>	<b>-2 258</b>	<b>-1 463</b>
<i>shaharlar</i>						
Farg'ona	1 779	1 487	1 245	809	534	678
Qo'qon	314	276	805	694	-491	-418
Quvasoy	338	245	229	179	109	66
Marg'ilon	237	37	807	632	-570	-595
<i>tumanlar</i>						
Oltiariq	128	59	261	215	-133	-156
Qo'shstepta	345	341	318	198	27	143
Bog'dod	141	40	371	242	-230	-202
Buvayda	116	146	306	292	-190	-146
Beshariq	145	105	441	384	-296	-279
Quva	95	78	424	338	-329	-260
Uchko'prik	209	202	329	294	-120	-92
Rishton	152	99	332	225	-180	-126
So'x	59	43	27	15	32	28
Toshloq	245	191	320	185	-75	6
O'zbekiston	12	227	444	392	-432	-165
Farg'ona	473	390	439	333	34	57
Dang'ara	415	350	312	274	103	76
Furqat	240	195	255	229	-15	-34
Yozyovon	115	57	151	101	-36	-44

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyun oylarida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 599,1 ming so'mni tashkil qildi va 2021-yilning shu davriga nisbatan 10,9 %ga o'sdi. Eng yuqori o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Farg'ona shaharda 3 613,3 ming so'mni, Qo'qon shaharda 3 057,6 ming so'mga to'g'ri keldi.

**Yanvar-iyun oylari davomida o‘rtacha nominal hisoblangan ish haqi  
(ming so‘mda)**

Viloyat 2 380,5

Farg‘ona	3 172,5
Qo‘qon	2 616,0
Beshariq	2 472,8
Furqat	2 401,2
Toshloq	2 321,8
Yozyovon	2 201,3
Quvasoy	2 088,1
Qo‘shtepa	2 081,2
Farg‘ona	2 041,3
Marg‘ilon	1 974,1
Bog‘dod	1 873,7
Rishton	1 942,3
Quva	1 936,2
Buvayda	1 920,6
O‘zbekiston	1 917,2
So‘x	1 914,3
Uchko‘prik	1 859,6
Dang‘ara	1 802,3
Oltiariq	1 676,2


Viloyat 2 663,7

Farg‘ona	3 613,3
Qo‘qon	3 057,6
Toshloq	2 978,4
Quvasoy	2 531,7
Bog‘dod	2 353,8
Yozyovon	2 347,5
Marg‘ilon	2 320,0
Furqat	2 307,5
So‘x	2 302,4
Uchko‘prik	2 240,0
Qo‘shtepa	2 237,8
Quva	2 194,4
O‘zbekiston	2 194,2
Farg‘ona	2 135,6
Rishton	2 115,2
Dang‘ara	2 097,6
Buvayda	1 952,9
Beshariq	1 927,2
Oltiariq	1 875,7

■ 2021-yil

■ 2022-yil

**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqqining  
iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi  
( 2022- yil yanvar-iyun, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirdorlik  
subyektlarisiz ming so‘mda)**



O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining eng yuqori miqdori moliya va sug‘urta faoliyatiga to‘g‘ri kelib, 7 250,8 ming so‘mni tashkil etdi. Bu ko‘rsatkich qurilishda 1890,7 sanoatda 3 133,2 va ta’lim sohasida 2 345,4 ming so‘mdan iborat bo‘ldi.

### **O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

(yanvar-iyun oylari qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz, ming.so‘mda)

	<i>2021-yil</i>	<i>2022-yil</i>	<i>O‘sish sur’ati %</i>
<b>Viloyat</b>	<b>2 380,5</b>	<b>2 663,7</b>	<b>111,9</b>
<i>shaharlar</i>			
Farg‘ona	3 172,5	3 613,3	113,9
Qo‘qon	2 616,0	3 057,6	116,9
Quvasoy	2 088,1	2 531,7	121,2
Marg‘ilon	1 974,1	2 320,0	117,5
<i>Tumanlar</i>			
Oltiariq	1 676,2	1 875,7	111,9
Qo‘shtepa	2 081,2	2 237,8	107,5
Bog‘dod	1 873,7	2 353,8	125,6
Buvayda	1 920,6	1 952,9	101,7
Beshariq	2 472,8	1 927,2	77,9
Quva	1 936,2	2 194,4	113,3
Uchko‘prik	1 859,6	2 240,0	120,5
Rishton	1 942,3	2 115,2	108,9
So‘x	1 914,3	2 302,4	120,3
Toshloq	2 321,8	2 978,4	128,3
O‘zbekiston	1 917,2	2 194,2	114,4
Farg‘ona	2 041,3	2 135,6	104,6
Dang‘ara	1 802,3	2 097,6	116,4
Furqat	2 401,2	2 307,5	96,1
Yozyovon	2 201,3	2 347,5	106,6